



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

RAQAMLI SIVILIZATSIYA SHAROITIDA JAMIYAT ONGINI YUKSALTIRISHDA MILLIY TA'LIMNING FALSAFIY MODELII

Namazova Yulduz Muzapparovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, (PhD), dotsent

Annotatsiya

Maqolada raqamli sivilizatsiya sharoitida jamiyat ongini yuksaltirishda milliy ta'limning o'rni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi milliy ta'limni jamiyat ongini shakllantiruvchi strategik institut sifatida baholash va uning falsafiy modelini asoslashdan iborat. Tadqiqotda analiz va sintez, tizimli-funksional yondashuv, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil hamda aksiologik interpretatsiya usullaridan foydalanildi. Natijada milliy ta'limning innovatsion-ta'limiy, gumanitar-ma'naviy va integrativ modellari ajratib ko'rsatildi hamda ularning jamiyat ongini yuksaltirishdagi funksional ahamiyati ochib berildi. Xulosa sifatida milliy ta'lim faqat bilim beruvchi tizim emas, balki ijtimoiy ong, madaniy xotira, axloqiy mas'uliyat va tanqidiy tafakkurni shakllantiruvchi strategik mexanizm ekanligi asoslandi.

Kalit so'zlar: raqamli sivilizatsiya, milliy ta'lim, jamiyat ongi, ijtimoiy falsafa, ta'lim modeli, tanqidiy tafakkur, madaniy identitet, aksiologik yondashuv

ФИЛОСОФСКАЯ МОДЕЛЬ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ

Намазова Юлдуз Музаппаровна

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, (PhD), доцент

Аннотация

В данной статье сопоставляются взгляды знатока человеческой психологии и в статье с социально-философских позиций анализируется роль национального образования в повышении общественного сознания в условиях цифровой цивилизации. Цель исследования состоит в обосновании философской модели национального образования как стратегического института формирования общественного сознания. В исследовании использованы методы анализа и синтеза, системно-функциональный подход, сравнительный анализ, контент-анализ и аксиологическая интерпретация. В результате выделены инновационно-образовательная, гуманитарно-духовная и интегративная модели национального образования, раскрыто их функциональное значение в повышении общественного сознания. Сделан вывод о том, что национальное образование представляет собой не только систему передачи знаний, но и стратегический механизм формирования общественного сознания, культурной памяти, нравственной ответственности и критического мышления.

Ключевые слова: цифровая цивилизация, национальное образование, общественное сознание, социальная философия, модель образования, критическое мышление, культурная идентичность, аксиологический подход.

THE PHILOSOPHICAL MODEL OF NATIONAL EDUCATION IN ENHANCING SOCIAL CONSCIOUSNESS IN THE CONTEXT OF DIGITAL CIVILIZATION

Namazova Yulduz Muzapparovna

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, (PhD), Associate Professor

Abstract

The article analyzes the role of national education in raising public consciousness under the conditions of digital civilization from a socio-philosophical perspective. The aim of the study is to substantiate a philosophical model of national education as a strategic institution shaping public consciousness. The research applies analysis and synthesis, the system-functional approach, comparative analysis, content analysis, and axiological interpretation. As a result, innovative-educational, humanitarian-spiritual, and integrative models of national education are identified, and their functional significance in improving public consciousness is revealed. It is concluded that national education is not only a system for transferring knowledge, but also a strategic mechanism for forming public consciousness, cultural memory, moral responsibility, and critical thinking.

Keywords: digital civilization, national education, public consciousness, social philosophy, educational model, critical thinking, cultural identity, axiological approach.

Raqamli sivilizatsiya sharoitida ta'lim tizimining mazmuni, shakli va funksiyalari tubdan o'zgarib bormoqda. Sun'iy intellekt, algoritmik boshqaruv, global axborot makoni va masofaviy ta'lim texnologiyalari ta'limning an'anaviy modeliga jiddiy tuzatishlar kiritmoqda. Bilim ishlab chiqarish, uzatish va o'zlashtirish jarayonlari endilikda texnogen vositalar orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa ta'limni faqat pedagogik tizim sifatida emas, balki raqamli-epistemologik muhit sifatida qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Natijada bilim subyekti, ya'ni insonning bilishdagi o'rni va roli ham transformatsiyaga uchramoqda. Inson endi bilimning yagona manbai emas, balki algoritmik tizimlar bilan o'zaro ta'sirda shakllanuvchi yangi kognitiv subyektga aylanmoqda.

Shu bilan birga, jamiyat ongini yuksaltirish masalasi faqat bilim hajmini oshirish bilan hal bo'lmaydi. U shaxsda tanqidiy tafakkur, tarixiy xotira, axloqiy javobgarlik va madaniy identitetni shakllantirishni ham talab etadi. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan qaralganda, ongni yuksaltirish bu — mavjud ijtimoiy voqelikni aks ettirish, uni tanqidiy tahlil qilish va ongli ravishda qayta qurish qobiliyatini rivojlantirish jarayonidir. Biroq zamonaviy ta'lim tizimlarining katta qismi ushbu vazifani to'liq bajarmayapti. Ular ko'proq texnik kompetensiyalar, raqobatbardoshlik va iqtisodiy samaradorlikni ustuvor deb biladi. Natijada ta'lim insonni ongli subyekt emas, balki tizimga moslashuvchi funksional birlik sifatida shakllantirishga moyil bo'lib bormoqda.

Mazkur tendensiya jamiyat ongining chuqurlashuvi emas, balki uning soddalashuvi va standartlashuviga olib kelishi mumkin. Axborot oqimining keskin ortishi sharoitida inson tafakkuri ko'proq tezkor qabul qilish, fragmentar idrok va yuzaki tahlilga yo'naltirilmoqda. Bu esa reflektiv tafakkurning zaiflashuvi, aksiologik barqarorlikning susayishi va madaniy identitetning yemirilish xavfini yuzaga keltiradi. Demak, ta'lim tizimi oldida yangi vazifa turibdi: u faqat bilim uzatuvchi emas, balki ongni shakllantiruvchi, qadriyatlarni mustahkamlovchi va shaxsni ijtimoiy mas'uliyatli subyektga aylantiruvchi tizim bo'lishi kerak.

Mazkur sharoitda milliy ta'lim jamiyatning ma'naviy-intellektual barqarorligini ta'minlaydigan strategik institut sifatida maydonga chiqadi. Milliy ta'limning o'ziga xosligi shundaki, u nafaqat global bilimlar tizimi bilan ishlaydi, balki milliy madaniy xotira, tarixiy tajriba va qadriyatlar tizimiga ham tayangan holda shakllanadi. Shu bois, u jamiyat ongini yuksaltirishda nafaqat funksional, balki aksiologik va ontologik ahamiyatga ega. Milliy ta'lim orqali jamiyat o'zining tarixiy identitetini saqlab qoladi, uni zamonaviy sharoitga moslashtiradi va yangi avlod tafakkurida qayta ishlab chiqadi.

Muammo shundaki, zamonaviy ta'lim tizimlari ko'p hollarda texnologik va pragmatik ko'rsatkichlarga tayanadi, biroq jamiyat ongini shakllantirishga doir falsafiy asoslar yetarli

darajada ishlab chiqilmagan. Xususan, raqamli transformatsiya jarayonlari ko'pincha texnik modernizatsiya sifatida talqin qilinmoqda, uning ijtimoiy-ongiy va madaniy oqibatlari esa yetarli darajada tahlil etilmayapti. Natijada ta'lim tizimi tashqi jihatdan innovatsion ko'rinishga ega bo'lsa-da, ichki mazmuni jihatidan ongiy transformatsiyani to'liq ta'minlay olmayapti.

Shu bois, milliy ta'limni rivojlantirish masalasini faqat tashkiliy yoki metodik nuqtai nazardan emas, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy kontekstda ko'rib chiqish zarur. Bu esa ta'limni inson tafakkuri, ijtimoiy ong va madaniy identitetni shakllantiruvchi kompleks tizim sifatida talqin etishni талаб этади.

Mazkur maqolaning maqsadi milliy ta'limning jamiyat ongini yuksaltirishdagi falsafiy modelini aniqlash va uning asosiy tarkibiy yo'nalishlarini ochib berishdan iborat. Шунингдек, тадқиқотда рақамли сивилизатсия шароитида таълимнинг трансформатсияси, унинг ижтимоий-онгий таъсири ва миллий таълим моделларининг интегратив хусусиятлари таҳлил қилинади.

Materiallar va metodlar. Tadqiqotda ijtimoiy-falsafiy tahlil metodologiyasiga tayangan holda analiz va sintez, tizimli-funksional yondashuv, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil va aksiologik interpretatsiya usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar yordamida milliy ta'lim, ijtimoiy ong, raqamli transformatsiya va madaniy identitet o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik konseptual darajada tahlil qilindi.

Tahlil materiali sifatida milliy ta'lim va jamiyat ongi masalalariga bag'ishlangan falsafiy adabiyotlar, raqamli transformatsiya bo'yicha nazariy ishlanmalar hamda ta'limning ijtimoiy vazifalarini sharhlovchi konseptual manbalar o'rganildi. Metodologik asos sifatida ta'limni jamiyatning aksiologik va epistemologik reproduksiyasini ta'minlaydigan institut deb talqin qiluvchi yondashuv qabul qilindi.

Natijalar. Tahlil natijasida jamiyat ongini yuksaltirishda milliy ta'limning uchta asosiy modeli mavjudligi aniqlandi. Birinchi model innovatsion-ta'limiy model bo'lib, u shaxsni raqamli tafakkur, axborot madaniyati va texnologik moslashuvchanlik ruhida shakllantirishga xizmat qiladi. Ikkinchi model gumanitar-ma'naviy model bo'lib, u milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, madaniy meros va axloqiy tamoyillar asosida shaxs ongini shakllantirishga qaratiladi.

Uchinchi model integrativ modeldir. Mazkur model innovatsion va gumanitar yo'nalishlarni birlashtirgan holda ta'limni insonning texnologik salohiyati bilan uning ma'naviy-axloqiy mohiyati uyg'unligida ko'radi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, aynan integrativ model jamiyat ongini barqaror yuksaltirishga eng ko'p xizmat qiladi. Ushbu modelning asosiy tamoyillari insonparvarlik, milliy o'zlikni anglash, tanqidiy tafakkur, ochiqlik, raqamli savodxonlik, ijtimoiy mas'uliyat va aksiologik barqarorlikdan iborat.

Muhokama. Muhokama shuni ko'rsatadiki, hozirgi ko'plab ta'lim modellarida texnik va pragmatik yondashuv ustuvor bo'lib, ta'limning jamiyat ongini transformatsiyalovchi vazifasi zaiflashmoqda. Agar ta'lim faqat kasbiy tayyorgarlik yoki raqamli ko'nikmalar bilan cheklanib qolsa, u ongiy yuksalishga emas, funksional reproduksiyaga xizmat qiladi.

Shu sababli milliy ta'lim modeli insonni axborot iste'molchisi emas, balki ongli va mas'uliyatli subyekt sifatida shakllantirishi zarur. Bunday yondashuv ta'limni ijtimoiy ong, madaniy identitet, tarixiy xotira va axloqiy qarorlar bilan bog'laydi. Demak, jamiyat ongini yuksaltirishga xizmat qiluvchi ta'lim modeli texnologik emas, balki falsafiy-aksiologik model bo'lishi lozim.

Xulosa. Raqamli sivilizatsiya sharoitida milliy ta'lim jamiyat ongini yuksaltirishning strategik instituti sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijasida milliy ta'limning innovatsion-ta'limiy, gumanitar-ma'naviy va integrativ modellari ajratib ko'rsatildi.

Integrativ model eng maqbul yo'nalish sifatida baholandi, chunki aynan u raqamli tafakkur, milliy qadriyatlar, tanqidiy yondashuv va ijtimoiy mas'uliyatni yagona tizimga

birlashtira oladi. Shunday qilib, milliy ta'limni rivojlantirish modellari jamiyatning intellektual, madaniy va ma'naviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy mexanizm hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

7. Castells M. The Rise of the Network Society. 2nd ed. Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. 597 p.
8. Jenkins H. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. New York: New York University Press, 2006. 334 p.
9. Habermas J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1: Reason and the Rationalization of Society. Boston: Beacon Press, 1984. 457 p.
10. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum, 2016. 184 p.
11. Morin E. On Complexity. Cresskill, NJ: Hampton Press, 2008. 127 p.
12. Gessen S.I. Osnovy pedagogiki. Vvedenie v prikladnuyu filosofiyu. Moscow: Shkola-Press, 1995. 448 s.
13. Namazova Y.M. Raqamli sivilizatsiya ta'sirida milliy ta'lim tizimi transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili: DSc dissertatsiya qo'lyozmasi. Toshkent, 2026.
14. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. Paris: UNESCO, 2021. 186 p.